



UDK: 821.512.161:82-1

*Dilnoza ABDULXAYEVA,*  
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: dbermet0411@gmail.com*

*O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti professori, f.f.d. U.Hamdammov taqrizi asosida*

### SELIM İLERI'S MASTERY IN CREATING TITLES

Annotation

The integrity and coherence of a literary work largely depend on its compositional elements, among which the title plays a significant role. The title of a literary work succinctly encapsulates the author's idea, intention, and the thematic essence of the entire text – often comprising hundreds of pages – by means of one or several words. In literary fiction, the title functions as an element that evokes the reader's initial assumptions and impressions about the work, attracts attention, and motivates the reader to engage with the text. Moreover, it psychologically prepares the reader for the perception and interpretation of the work's content. This article examines the significance of the title as one of the essential components of a literary work's composition. Through an analysis of the titles of the short stories included in the collection by the contemporary Turkish writer Selim İleri, *All the Stories of Thirty Years (1967–1997) (Otuz Yılın Bütün Hikayeleri 1967–1997)*, the study explores the poetic structure of the author's short stories, their artistic and ideological layers, and the distinctive features that characterize Selim İleri's individual style.

**Key words:** Selim İleri, short story, title of a literary work, composition, plot, artistic detail, character/image.

### МАСТЕРСТВО СЕЛИМА ИЛЕРИ В СОЗДАНИИ ЗАГОЛОВКОВ

Аннотация

Целостность и художественная завершенность литературного произведения во многом зависят от его композиционных средств, среди которых особое значение имеет заглавие. Заглавие произведения в сжатой и лаконичной форме — посредством одного или нескольких слов — аккумулирует авторскую мысль, идею, а также содержательно-смысловую сущность всего произведения, нередко охватывающего сотни страниц. В художественной литературе название произведения, то есть его заглавие, выступает как элемент, формирующий у читателя первые предположительные представления о тексте, привлекающий его внимание и побуждающий к чтению. Кроме того, заглавие психологически подготавливает читателя к восприятию содержания произведения.

Настоящая статья посвящена анализу значения заглавия как одного из важнейших элементов композиции художественного произведения. На материале заглавий рассказов, вошедших в сборник современного турецкого писателя Селима Илери “Все рассказы тридцати лет (1967-1997)” (“Otuz Yılın Bütün Hikayeleri 1967-1997”), исследуются поэтическая структура рассказов писателя, их художественно-идейный слой, а также особенности авторского индивидуального стиля.

**Ключевые слова:** Селим Илери, рассказ, заглавие произведения, композиция, сюжет, художественная деталь, образ.

### SELIM İLERİNİN SARLAVHA YARATIŞ MAHORATI

Annotatsiya

Badiiy asarning bir butun va yaxlit bo'lishi asar kompozitsion vositalariga bog'liq bo'lib, bunda asar sarlavhasi katta ahamiyatga ega. Asar sarlavhasi butun boshli asarga, ya'ni yuzlab sahifalarga jo qilingan yozuvchi fikrini, g'oyasini, asarning mazmun-mohiyatini bir yoki bir necha so'z vositasida qisqa va lo'nda tarzda o'zida mujassam etadi. Badiiy adabiyotda asar nomlari ya'ni asar sarlavhasi kitobxonda asar haqida ilk tahminiy fikr-mulohazalarni uyg'otuvchi, kitobxon diqqatini o'ziga tortuvchi, uni asarni o'qishga undovchi unsur sanaladi. Shuningdek, o'quvchini asar mazmunini o'zlashtirishga ruhan tayyorlaydi. Mazkur maqola badiiy asar kompozitsiyasining muhim unsurlaridan biri bo'lgan asar sarlavhasining ahamiyati haqida bo'lib, unda zamonaviy turk yozuvchisi Selim İlerining “O'ttiz yilning barcha hikoyalari 1967-1997” (“Otuz Yılın Bütün Hikayeleri 1967-1997”) nomli to'plamidan joy olgan hikoyalarning sarlavhalarini tahlil qilish orqali adib hikoyalarning poetik strukturasi, badiiy-g'oyaviy qatlami va muallifning uslubiy o'ziga xosligini ifodalovchi jihlatlar o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Selim İleri, hikoya, asar sarlavhasi, kompozitsiya, syujet, badiiy detal, obraz.

**Kirish.** Tilimizda asar nomi yoki sarlavha deb ataluvchi so'z, forsha “ser” va arabcha “levha” so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lib, O'zbek tili izohli lug'atida sarlavha so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: Kitob, asar, maqola va shu kabilarning yoki ularning ayrim qismlarining nomini ifodalovchi so'z yoki jumla [9]. Shuningdek, sarlavha matnda tilga olingan mavzuning mazmun-mohiyatini qisqacha tanituvchi nom hisoblanadi.

Turk adabiyotshunosi Turan Qoratoshning “Turk adabiyoti terminlarining ensiklopedik lug'ati” da sarlavha haqida shunday deyiladi: Har qanday adabiy matnning, xoh u nazmiy xoh u nasriy asar bo'lishidan qat'iy nazar mutlaqo bir

sarlavhasi bo'ladi. Inson uchun ism qanday ahamiyatga ega bo'lsa, adabiy matnlar uchun ham sarlavha shu darajada ahamiyatga egadir. Ayniqsa, nasriy asarlarda sarlavhaning ahamiyati yuqori. Bu turdagi asarlarning sarlavhalari qisqa, e'tiborni jalb qiluvchi, asar g'oyasiga va matn ruhiga mos bo'lishi kerak [4].

Asar sarlavhasi adabiyot nazariyasi kitoblarida “tashqi kompozitsiya vositalari”, “arxitektonika”, “matn ramkasi komponentlari” sirasiga kiritiladi. Sarlavha “asarning badiiyat hodisasiga aylanishida g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi [7].” Bu haqida A.N.Nikolyukin ta'kidlaganidek: Kitobning taqdiri unga qanchalik yaxshi sarlavha tanlanganligi bilan

bog'liqdir [5]. Darhaqiqat, asar mazmun-mohiyatiga mos tanlangan sarlavha uni muvaffaqiyatga erishishini ta'minlaydi.

Shundayki, sarlavha asar ichidagi g'oyani tamomlab, uni mazmunan to'ldirib, boyitib beradi. Ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asar mag'zini chaqishga, uni anglashga yordamchi bo'ladi. Sarlavha o'quvchiga asar mazmuni haqida ma'lumot beribgina qolmay, uni anglashda "ochqich" vazifasini ham o'taydi. Majoziy-metaforik yoki kinoyaviy bog'liklik esa kitobxonni o'ylashga undaydi. Bunday sarlavhalar yozuvchi mahoratining naqadar yuksakligini ko'rsatadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tarixiy poetika nuqtai nazaridan qaralganda, sarlavhaga bo'lgan munosabatning tarixiy jarayonda o'zgarib borishi uning muallif va kitobxon o'rtasidagi estetik "dialog"dagi funksiyasini yaqqol namoyon etadi. Uzoq vaqt davomida sarlavhalar asar tuzilishining muhim tarkibiy qismi sifatida qabul qilinmagan, faqat matnning texnik "belgisi" bo'lib xizmat qilgan. Bosmaxonalar paydo bo'lishi sarlavhalarning rolini sezilarli darajada oshirgan. Zamonaviy adabiyotda sarlavhalar asta-sekin tavsifiy va didaktik xususiyatini yo'qotib, estetik jihatdan ahamiyatliroq bo'lib boradi. XIX-XX asr nasri uchun murakkab semantikaga ega majoziy sarlavhalar (ishoralar, ramzlar va metaforalardan iborat sarlavhalar) xarakterlidir [5].

Y.V.Skudar "Badiiy asar sarlavhasi. Muharrir mulohazalari" nomli maqolasida sarlavha tanlash san'ati, poetik asar nomlanishi, omadsiz sarlavhalar va rus adabiyoti tarixidan bugungi kungacha davom etgan jarayonda badiiy asar nomlanishi bilan bog'liq fikr-mulohazalarini bildirar ekan, ijodkor o'z asariga sarlavha tanlashiga turli omillar, xususan: asar yozilgan makon va zamon; asarning turi va janri; asar yozilgan davrdagi adabiy urf-odatlar va adibning individual o'ziga xosligi ta'sir ko'rsatishi mumkinligiga to'xtalib o'tadi [6].

Adabiyotshunos olim K.O'.Hamrayev o'zbek hikoyachiligida sarlavhalarni shartli ravishda to'rt guruhga ajratadi:

Hikoya tarkibidan o'sib chiquvchi sarlavha asar voqealarini uyushtiruvchi, ijodkor badiiy niyati bilan bog'liq detal, obraz yoki syujet chizig'iga asosan tanlanadi.

Majoziy sarlavha ma'no ko'chishining turli usullariga tayanadi. Kinoya sarlavha, tazod sarlavha va falsafiy sarlavha uning tarkibiy qismlaridir.

Ruhiy-emotsional sarlavha. Bu turdagi sarlavhalar qo'llangan hikoyalarda g'oyaviy, tanqidiy xarakterdan ko'ra, ruhiy tasvir xususiyati ustunlik qiladi.

Xronotop sarlavha ikki xil bo'ladi: zamon-vaqt va makon-joy bilan bog'liq sarlavhalar [3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada Selim Ileri hikoyalari sarlavhalarini tahlil qilishda adabiy-estetik, tasniflash va badiiy asarni kompleks tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** asar mazmunida asosiy o'rin tutuvchi bosh komponent qahramon hisoblanadi. Adabiyotni qahramonsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Selim Ilerining ayrim hikoyalari nomlarida qahramonlarga urg'u beriladi. Bosh qahramon ismlari bilan ataladigan asarlarda nafaqat obraz nomi, balki uning "nasl-nasabi, kasb-hunari, laqabi va boshqa belgilarini bildiruvchi so'zning o'zi yoki izohlanmishi bilan hikoya sarlavhasiga aylanadi [3]." Adibning "Mustafo Suphi" ("Mustafa Suphi"), "Hur qiz" ("Gelinlik Kiz") va "Asalaq" ("Asalak") kabi hikoyalari bunga misol bo'ladi. Mazkur hikoyalari syujeti bevosita shu obrazlar bilan bog'liq.

"Asalaq" ("Asalak") hikoyasining qahramoni Guner, o'z otasining xatti-harakatlaridan nafratlanadi, chunki uning otasi qo'shnilari shoir Ashraf Salimning boshiga mushkul ishlar tushmasidan oldin u bilan juda yaqin va iliq munosabatda edi. Biroq shoir hibsga olingach, otasi u bilan munosabatlari yo'qligini, hatto uni tanimasligini e'lon qiladi.

Guner esa otasining Ashraf Salimga nisbatan qilgan bu ishini hazm qila olmaydi. Uning otasi "asalaq"ga o'xshaydi. Asalaq bir tirik mavjudotdan oziqlanib, unga bog'liq holda yashaydigan va o'sha mavjudotga zarar yetkazadigan parazitdir. Guner doimiy ravishda o'zini bu oilaga begona his qiladi. Bu shahardan bosh olib ketib, uzoq qishloqlarda baxtli hayot kechirishni orzu qiladi. Obraz sarlavhali asarlarda muallifning kishilarga, hayotiy voqealarga estetik bahosi yaqqol namoyon bo'ladi.

Yozuvchilar hayotni badiiy ifodalashda, qahramon xarakteri qirralarini ochishda, asar g'oyasini ifodalashda, uning emotsional ta'sir kuchini oshirishda turli-tuman badiiy detallardan foydalanadi [1]. Ba'zi asarlarda voqealarni harakatga keltiruvchi, qismlarni birlashtiruvchi, qahramon hayotida muhim rol o'ynovchi badiiy detallar asar sarlavhasi sifatida tanlanadi. Selim Ilerining "Bir skripka" ("Bi Keman"), "Onamning sardunyalari" ("Annemin Sardunyalari"), "Sehrli fonus" ("Laterna Magica") hikoyalarda predmet detal, "So'zsiz nola" ("Türküsz"), "G'am-qayg'u qahvasi" ("Hüzün Kahvesi"), "Yig'layotgan koshinlar" ("Ağlayan Kiremitler") nomli hikoyalarda ruhiy detal sarlavha darajasiga ko'tarilib chiqqanini kuzatish mumkin.

Adibning "So'zsiz nola" ("Türküsz") hikoyasining nomi kitobxonni ilk ondayoq bu so'zning ma'nosi nima ekan degan o'ylar domiga g'arq qiladi. Turk tilida "türkü" so'zi ma'lum bir kuy, ohang, musiqa jo'rligida ijro etiladigan qo'shiqni ifodalaydi [10]. Lekin turk tili lug'atlarida "türküsz" so'zi uchramaydi, agar "türkü" so'ziga "-süz" sifat yasovchi qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan desak, unda "qo'shig'i, nolasi yo'q" degan ma'no hosil bo'ladi. Kitobxonda o'rinli ravishda: "qo'shig'i, nolasi yo'q" degani qanday ma'noni anglatadi? degan savol tug'iladi. Bu savolning javobini esa kitobxon asarni o'qish asnosida anglab yetadi.

Mazkur hikoyada o'qituvchi Suat sevgilisi uni tark etib ketgach o'zini ishiga bag'ishlaydi va onasi bilan Turkiyaning chekka-chekka qishloqlariga borib, o'qituvchilik qiladi. Bu davr mobaynida esa, insonlardan uzoqlashib, begonalashib boradi. Tevarak-atrofida insonlarning quvonchu-shodligini, ayniqsa, akasi Najot va yangasi Helenaning baxtli hayotini kuzatadi. Hayotda omadi chopgan ayollarning o'z baxtidan sarmast bo'lib qo'shiq xirgoyi qilishlariga havas bilan qaraydi. Asar so'ngida O'nay bosh qahramon Suat bilan suhbat chog'ida unga shu so'zlarni aytadi:

"Siz o'gretmenim, siz hech sevdig'iniz erkeg' uchun manavdan patlican secip, ayiklayip, yediye sekize bölüp, bir tavada zeytin yağı kızdırıp, kokmasın diye saçınızı sarıp, patlicanları birer ikişer tavaya atıp kızartmadınız. Siz o'gretmenim, siz hiç patlican kızartırken bir türkü tutturmadınız canınızın çektiği gibi, sevgiyle mutlulukla. Türküsz bir kadınsınız siz o'gretmenim [2]."

("Ustoz, siz hech qachon o'z sevgan yoringiz uchun do'kondan baqlajon olib kelib, yuvib tozalab, yetti-sakkiz bo'lakka bo'lib, tovada zaytun moyini qizdirib, bir-ikkitanadan solib qovurmaganisiz. Qovurayotganizgizda hidi sochlaringizga o'tirib qolmasligi uchun ularni yig'ib olmagansiz. Ustoz siz, baqlajon qovurayotganda ko'ngildan, mehr berib, baxtiyorlikdan jo'shib qo'shiq xirgoyi qilmadingiz. Siz baxt qo'shig'idan mosuvo ayolsiz.")

Muallif Suatning baxtsizligini manashu tarzda ortiqcha ta'riflarsiz, ruhiy detal zimmasiga yuklaydi va ayol dardining kuyi, so'zi, nolasi yo'qligi bilan kitobxon diqqatiga havola qiladi.

Selim Ilerining yana bir hikoyasi "Tadbir" ("Müsامرة") deb nomlangan bo'lib, hikoyada adib oddiy bir tadbir orqali jamiyatdagi tabaqalashuv, ta'lim tizimidagi muammoli vaziyatlarni, og'riqli nuqtalarni aks ettiradi. Adib hikoyada poraxo'rlik, ichkilik, qimor kabi illatlarni,

o'qituvchilarning boy va kambag'al oila farzandlariga bo'lgan munosabatini, ota-ona va farzand o'rtasidagi holatlarni bola tilidan aks ettiradi. Oddiy bir boshlang'ich maktab bitiruv "tadbir"i, kimlar uchun quvonchli va hayajonli lahzalarni ifodalasa, yana kimlar uchun esa og'riqli, dardli, xo'rlanish onlarini ifodalashini tasvirlab beradi. Mazkur hikoyadagi voqealar ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, hikoyaning zamirida achchiq kinoya yotadi. D.Quronov ta'kidlaganidek kinoya "vaziyatning qanchalik jiddiyligi va fojeiyligini ham ta'kidlab ko'rsatishdan iborat bo'ladi [8]."

"Yig'layotgan koshinlar" ("A'g'layan Kiremitler") hikoyasi sarlavhasida yozuvchi metaforaning bir ko'rinishi bo'lgan jonlantirishdan foydalanadi. Bu bilan muallif koshinlarning ham mashaqqatli va azobli kunlarni boshdan kechirayotgan Majidaga qo'shib yig'layotganiga, iztirob chekayotganiga ishora qiladi va ma'no ta'sirchanligini oshirishga erishadi:

"Kentin en suskun mahallelerinde evler sarsıla sarsıla uğulduyorlardı; yer yer kırık kiremitlere on binlerce yağmur damlası bir anda kendini bırakıyor, kiremitlerden acılı evlerin camlarına akışıyorlardı [2]."

("Shaharning eng sokin mahallalarida uylar silkinib silkinib g'uvillardı; singan tom koshinlari ustiga bir lahzada o'n minglab yong'ir tomchilari urilar, koshinlardan iztirobli uylarning oynalariga oqib tushardi.")

Selim Ileri hikoyalarida qahramon ruhiy holatini, ichki olamini, his-tuyg'ularini tasvirlash ustuvor jihatlardan biri hisoblanib, bu uning hikoyalari sarlavhalarida ham kuzatiladi. "Butun Istanbul bilsin" ("Bütün İstanbul Bilsin") nomli hikoyada qahramon Kamolga nisbatan qilingan tuhmat uning bolaligini, odamlarga bo'lgan ishonchini, kattalarga bo'lgan muhabbatini nafratga aylantiradi. Bola qalbidagi nohaq ayblovga qarshi isyon, hayqirish hissi, chidab bo'lmas g'azab shu darajada kuchliki, xuddi hikoya ichiga sig'may uni yorib chiqadi. Bola o'ziga nisbatan qilingan nohaqlikni butun Istanbulga bildirishni, hayqirishni xohlaydi.

"Shaxzoda Gamletning fojeali hikoyasi" ("Prens Hamlet'in Trajik Öyküsü") hikoyasining mohiyatiga keladigan bo'lsak, asar bosh qahramoni hush surat, kelishgan, tashqi go'zallikka katta ahamiyat beradigan teatr aktyori Feridun bo'lib, u doim teatr sahnalarida bosh rollarni ijro etadi. Yoshlik, mashhurlik, pul, muxlisalar qurshovi unga doimiyday tuyuladi. Natijada u hech narsani mensimaydigan bo'lib qoladi, ko'plab ayollarning qarg'ishiga sabab bo'ladi. Hayot suvday oqib ketadi. Kun kelib unga keksalar rolini taklif qilishadi. Bunday vaziyatga tushib qolganini qabul qilolmay yurgan kunlarining birida sahnadagi doimiy hamkori unga yuz operatsiyasi qildirishni va yana oldingi holatiga qaytishi mumkinligini aytadi. Noto'g'ri qilingan operatsiya natijasida uning yuzi jirkanch holatga kelib qoladi. Yozuvchi mazkur hikoyada ichki tubanlik oxir-oqibat inson umrining fojeasiga aylanishini badiiy aks ettiradi.

Adabiy asarda makon bu asar voqealari sodir bo'ladigan joy, sahna vazifasini o'taydi. Shuningdek, makon tasviri qahramonning moddiy, ma'naviy va ruhiy holatini aks ettirishga xizmat qiladi. Personaj hayotida o'chmas iz qoldirgan voqea-hodisalar sodir bo'lgan makon ba'zan asar sarlavhasi sifatida tanlanadi. "Zaytunzorlar ostida sukunat yo'q" ("Zeytinliklerin Altında Sükun Yok"), "Dengiz qirg'oqlarida" ("Bir Denizin Eteklerinde") nomli hikoyalar makon-joy sarlavhali hikoyalar bo'lib, bu hikoyalarda qahramon o'y-xayollari, orzulari manashu makonlar bilan bog'liqliki kuzatiladi.

"Kuzgi urush" ("Güzün Savaş"), "Shanbadagi yolg'izlik" ("Cumartesi Yalnızlığı"), "Pastirma yozi" ("Pastırma Yazı"), "Do'stlikning so'ngi kuni" ("Dostlukların Son Günü"), "So'ngi yoz oqshomi" ("Son Yaz Akşamı") hikoyalari sarlavhasi esa zamon-vaqt bilan bog'liq xronotop sarlavhalar sirasiga kiradi. "Kuzgi urush" ("Güzün Savaş") hikoyasi voqealari kuz faslining bir tunida sodir bo'ladi. Buroq bu fojeali kechani hech qachon unutmashini va kelajak avlodlarga ham yetkazishini shu tarzda ifodalaydi:

"Unutmayacağı, yıllarca etkisi altında kalacağı bir güz savaşının bitmek tükenmek bilmeyen tutsak gecelerini, günün ışyan o ilk yarığörünür ışığını, erkenci bir şoförün uzak ve özgür yollarda keyfince ilk korna çalışını bütün dünyaya yayardı [2]."

("U hech qachon unutmaydigan, yillar davomida ta'siri ostida qoladigan bu kuz urushining bitmas-tuganmas asir kechasini, tong otayotgan paytdagi ilk xira nurlarni, barvaqt yo'lga otlangan bir haydovchining uzun va ozod yo'llarda kayfli signal chalishini butun dunyoga ovoza qilardi.")

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, asar sarlavhasi estetik va falsafiy ahamiyatga ega bo'lishi bilan bir qatorda ma'lum bir vazifani bajaradi. Asarning mavjudligi, "qabul qilinishi, iste'moli" ni ta'minlaydi.

**Xulosa va takliflar.** Badiiy asarning turli qismlari orasidagi mutanosiblik uning go'yaviy-estetik ta'sir kuchini oshiradi. Asar mazmuniga mos sarlavha uning badiiy qiymatini boyitish bilan birga muvaffaqiyatining garovi hamdir. Selim Ileri hikoyalari sarlavhalarini tahlil qilish orqali quyidagilarni xulosa qilib aytish mumkin: adib hikoyalarida qahramon ruhiy holati sarlavhalarda ham aks etishi kuzatiladi. Muallif hikoyalarida har bir unurni shunday joylashtiradiki, takrorlarga yo'l qo'ymaydi. Kerak bo'lsa, hikoya mazmun-mohiyatini ochib beruvchi ochqichni sarlavhaga joylaydi. Natijada hikoya janriga xos bo'lgan siqqlik ta'minlanadi. Bu esa yozuvchining kompozitsion mahoratining yuksakligini ko'rsatadi. Ma'joziy sarlavhalar yozuvchining o'ziga xos uslubi va til vositalaridan yaratuvchilik bilan foydalanishini ifodalaydi. Bu orqali yozuvchi ta'sirchanlikni oshirishga va ma'noni kuchaytirishga erishadi.

## ADABIYOTLAR

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2002. – 560 б.
2. Ileri S. Otuz Yılın Bütün Hikayeleri 1967-1997. – İstanbul: Oğlak Yayıncılık ve Reklamcılık Ltd. Şti, 1997. – 766 s.
3. Hamrayev K.O'. Badiiy asarni o'qitishda sarlavhaning o'rni // "Raqamlashtirish davrida o'zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o'qitish masalalari: mahalliy va xorijiy tajriba" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. 2024. № 10. – 321-327 b.
4. Karataş T. Ansiklopedik Edebiyat terimleri sözlüğü. – İstanbul: Perşembe kitapları, 2001. – 477 s.
5. Николокин А.Н., и др. Литературная энциклопедия терминов и понятий. Москва: НПК Интелвак, 2001. – 1600 стб.
6. Скударь Е.В.Название (заглавие) литературного произведения. Размышления редактора // Вестник Московского университета Серия 10. Журналистика. 2011. № 2. – 61-68 с.
7. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
8. Қуроноу Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 402 б.
9. <https://izoh.uz/>
10. <https://www.turkedebiyati.org/turku-nedir/>